

O‘ZBEKISTON VA YUNESKO HAMKORLIGI RIVOJLANISHIDA NOMODDIY MADANIY MEROSNING O‘RNI

*Sattorov Ulug‘bek Abdurazzoq o‘g‘li, Oriental
universiteti o‘qituvchisi*

THE ROLE OF INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE IN THE DEVELOPMENT OF COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND UNESCO

*Sattorov Ulugbek Abdurazzoq ogli, Lecturer at the
Oriental University*

РОЛЬ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В РАЗВИТИИ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ЮНЕСКО

*Саттаров Улугбек Абдураззак оглы, преподаватель
Восточного университета*



<https://orcid.org/0009-0009-7376-2421>

e-mail:
beksattoroff123@gmail.
com



Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimiz tarixi, madaniyati, san‘ati hamda qadriyatlarining bir qismi bo‘lgan nomoddiy madaniy merosni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish hamda ularni asrab-avaylash borasida YUNESKO bilan hamkorlik aloqalari yoritib berilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha sohalarida bo‘lgani kabi madaniy sohada ham tub islohotlar amalga oshirilganligi, ushbu sohaga oid huquqiy tizim mustahkamlanganligi, qadimiy shaharlarimiz va u yerda joylashgan madaniy yodgorliklarning YUNESKO ro‘yxatlari va dasturlariga kiritilishiga oid tadqiqotlar tahliliga qaratilgan. Mavzuni yoritishda tegishli me‘yoriy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar, adabiyot va davriy matbuot materiallaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: YUNESKO, moddiy madaniy meros, nomoddiy madaniy meros, milliy qadriyatlar, tarix, madaniyat, san‘at, folklor, xalqaro targ‘ibot.

Abstract: This article highlights the cooperation between Uzbekistan and UNESCO in promoting intangible cultural heritage, which is an integral part of the country’s history, culture, art, and values, at the international level, as well as in preserving it. The study emphasizes that after gaining independence, Uzbekistan implemented fundamental reforms in all areas, including culture, strengthened the legal framework in this field, and carried out research on the inclusion of ancient cities and cultural monuments located there into UNESCO lists and programs. In covering the topic, relevant regulatory documents, scientific research, literature, and periodical press materials have been used.

Keywords: UNESCO, tangible cultural heritage, intangible cultural heritage, national values, history, culture, art, folklore, international promotion.

Аннотация: В данной статье освещается сотрудничество Узбекистана с ЮНЕСКО в области продвижения на международном уровне нематериального культурного наследия, являющегося частью истории, культуры, искусства и ценностей нашей страны, а также в его сохранении. В исследовании подчеркивается, что после обретения независимости в Узбекистане были проведены коренные реформы во всех сферах, в том числе в культурной, укреплена правовая база в данной области, а также проведены исследования, посвященные включению древних городов

и расположенных там культурных памятников в списки и программы ЮНЕСКО. При освещении темы использованы соответствующие нормативные документы, научные исследования, литература и материалы периодической печати.

Ключевые слова: ЮНЕСКО, материальное культурное наследие, нематериальное культурное наследие, национальные ценности, история, культура, искусство, фольклор, международное продвижение.

Kirish. Nomoddiy madaniy meros insonlarni bir-biriga yaqinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bugungi kunda yosh avlodlar o'rtasida nomoddiy madaniy merosning ahamiyati va uni muhofaza qilish zarurligi to'g'risida xabardorlikni oshirish har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi. Nomoddiy madaniy meros jamiyatlar o'zlarining madaniy o'zligining bir qismi deb tan oladigan amaliyotlar, bilimlar va ifodalarni, shuningdek, tegishli obyektlar va joylarni o'z ichiga oladi. Avloddan avlodga o'tib keladigan bu meros o'zlikni mustahkamlaydi va madaniy xilma-xillikka hurmatni oshiradi.

Adabiyotlar tahlili. YUNESKO va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik aloqalarining rivojlanishida madaniyat sohasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jahon nomoddiy madaniy meros durdonalari noyobligini inobatga olgan holda YUNESKO dastlab 2001-2003-yillarda "Insoniyatning og'zaki va ma'naviy meros durdonalari" nomli dasturni amalga oshirdi. 2003-yil YUNESKO Bosh Anjumani 32-sessiyasida "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiya[1] qabul qilindi. 2007-yil 12-dekabrda O'zbekiston mazkur konvensiyani ratifikatsiya qildi[2] hamda ushbu konvensiyadan kelib chiqib nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha mamlakatimizda tegishli qonun hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, 2010-yil 7-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi[3] hamda 2011-yil 23-fevralda "Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi[4], 2023-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi[5], 2024-yil 29-iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston

Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida[6] hamda 2025-yil 24-aprelda Nomoddiy madaniy meros namunalari ro'yxatga kiritish yoki undan chiqarish bilan bog'liq davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida[7] qarorlari qabul qilindi. O'zbekistonda moddiy va nomoddiy madaniy merosni o'rganish va ularni kelajak avlodga yetkazish bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. O'zbekiston BMTning fan, ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha ixtisoslashgan tashkiloti hisoblanadigan YUNESKOga a'zo bo'lgan davrdan boshlab tashkilot bilan hamkorlikda nomoddiy madaniy meros obyektlarini himoya qilish borasida ham faol xalqaro hamkorlik aloqalarni yo'lga qo'ygan bo'lib, Nomoddiy madaniy merosni asrash va uni targ'ib qilish borasidagi hamkorlik aloqalari faol olib borilmoqda. Mamlakatimiz o'zining qadimiy madaniyati, milliy qadriyatlari va boy tarixiy merosiga egaligi bilan jahon hamjamiyatida muhim o'rin egallaydi.

YUNESKO konvensiyasining 2-moddasiga[8] asosan nomoddiy madaniy meros o'zlikni namoyon etishning og'zaki ko'rinishlari, xususan, til nomoddiy merosni ko'rsatuvchi faktor sifatida, ijrochilik san'ati, ijtimoiy marosimlar, urf-odatlar, bayramlar, tabiat va koinotga oid bilimlar va an'anaviy kulolchilik kabilarni tashkil etadi. Nomoddiy madaniy meros sohasidagi quyidagi tadbirlar YUNESKO bilan hamkorlikda o'tkazilgan: «Folklorni va an'anaviy madaniyatni saqlash» bo'yicha mintaqaviy anjuman (Toshkent, 1998-yil oktyabr), 2002-2005-yillarda «Boysun bahori» folklor festivallari va «Boysun madaniy merosi» mavzusidagi mintaqaviy ilmiy anjuman

(2005-yil 19-21-may, Boysun), 2005-2007-yillarda (YUNESKO/Yaponiya jamg'armasi ko'magida) amalga oshirilgan Boysun madaniy makoni va Shashmaqom musiqasi bo'yicha hujjatlashtirish loyihalari, 2004-2005-yillarda YUNESKOning Qatnashuv dasturi doirasida «Ipak yo'li hikoyalari» va «Ipak yo'li rivoyatlari» kitoblari chop etildi, har yili Xalqaro ona tili kunini nishonlanishiga bag'ishlangan davra suhbatlari tashkil etiladi (21-fevral), Nomoddiy madaniy merosni saqlash bo'yicha shaharlararo hamkorlik tarmog'i muvofiqlashtirildi (2005-2007-yillar)[9].

2009-yilda, Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi YUNESKO madaniy markazi (ASSYU, Tokio, Yaponiya) tomonidan o'tkazilgan mahalla doirasida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishda eng yaxshi tajriba bo'yicha ikkinchi tanlovida O'zbekiston Respublikasi «Katta ashula» nomzodnomasi bilan ishtirok etdi. Tanlovning xalqaro hay'at qaroriga muvofiq «Katta ashula» nomzodnomasi g'olib deb topildi[10].

Bugungi kunga qadar O'zbekiston Respublikasidan YUNESKOning nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga quyidagilar kiritilgan:

1. "Boysun mintaqasi madaniy muhiti" 2001-yilda nomzodligi topshirilib, 2008-yil ro'yxatga kiritilgan;
2. "Shashmaqom" musiqasi 2003-yilda nomzodligi topshirilib, 2008-yilda ro'yxatga kiritilgan;
3. "Katta ashula" 2009-yilda ro'yxatga kiritilgan;
4. "Askiya – aql san'ati" 2014-yilda ro'yxatga kiritilgan;
5. "Navro'z" bayrami 2016-yilda ro'yxatga kiritilgan;
6. "Palov madaniyati va an'anasi" 2016-yilda ro'yxatga kiritilgan;
7. "Marg'ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi, atlas va adrasni ishlab chiqarish an'anaviy texnologiyalarini himoya qilish" 2017-yilda yaxshi himoya amaliyoti Reyestri namunasi sifatida tanlab olingan;
8. "Lazgi" Xorazm raqsi 2019-yilda ro'yxatga kiritilgan;
9. "Miniatiyura" san'ati 2020-yilda ro'yxatga kiritilgan;
10. "Baxshichilik" san'ati 2021-yilda ro'yxatga kiritilgan;
11. "Xo'ja Nasriddin haqidagi latifalarni takrorlash an'analari" 2022-yilda ro'yxatga kiritilgan;

12. "Ipakchilik va to'quv uchun an'anaviy ipak ishlab chiqarish" 2022-yilda ro'yxatga kiritilgan;
13. "O'zbekistonda kulolchilik san'ati" 2023-yilda ro'yxatga kiritilgan;
14. "Iftor va uning ijtimoiy-madaniy an'analari" 2023-yilda ro'yxatga kiritilgan;
15. "Bezak san'ati: naqqoshlik" 2023-yilda YUNESKO insoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonalari ro'yxatiga kiritildi.
16. "Rubob yasash va uni ijro etish san'ati" 2024-yilda ro'yxatga kiritilgan.

YUNESKO "Nomoddiy madaniy meros" ro'yxatiga mamlakatimiz qator davlatlar bilan hamkorlikda qo'shma nomzodlikda turli obyektlarni taqdim etgan. Ushbu ro'yxatga kirishda bir necha xalq vakillarining mushtarak qadriyat va an'analarga ega ekanligi sababidan ro'yxatga nomzodnomalarni taqdim etish imkonini bergan. Hamkorlikdagi nomzodnomalar Eron, Ozarbayjon, Tojikiston Turkiya, Afg'oniston Turkmaniston, Qozog'iston Qirg'iziston, Hindiston, Iroq, Pokiston davlatlari bilan birgalikda kiritilgan. Ularning to'liq ro'yxatini quyida ko'rib chiqamiz:

- "Shashmaqom" musiqasi – O'zbekiston va Tojikiston hamkorligida;
- "Navro'z" bayrami – Afg'oniston, Ozarbayjon, Eron, Iroq, Hindiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya va davlatlari hamkorligida;
- "Miniatiyura" san'ati – Ozarbayjon, Eron, Turkiya va O'zbekiston hamkorligida;
- "Xo'ja Nasriddin haqidagi latifalarni takrorlash an'analari" – Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston va O'zbekiston hamkorligida;
- "Ipakchilik va to'quv uchun an'anaviy ipak ishlab chiqarish" – Afg'oniston, Ozarbayjon, Eron, Turkiya, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston hamkorligida;
- "Iftor va uning ijtimoiy-madaniy an'analari" – Ozarbayjon, Eron, Turkiya va O'zbekiston hamkorligida;
- "Bezak san'ati: naqqoshlik" – Ozarbayjon, Eron, Tojikiston, Turkiya va O'zbekiston hamkorligida;
- "Rubob yasash va uni ijro etish san'ati" – Afg'oniston, Eron, Tojikiston va O'zbekiston hamkorligida.

Yuqoridagi misollardan birgina Navro'z bayrami 2016-yilda YUNESKOning ro'yxatiga

Afg'oniston, Ozarbayjon, Eron, Iroq, Hindiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya, davlatlari hamkorligida kiritilgan. Shundan kelib chiqadiki, Navro'z uch yuz milliondan ortiq insonlarning umumiy bayrami hisoblanadi. 2010-yil BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida "Navro'z" bayrami *Insoniyat nomoddiy madaniy merosi durdonasi* sifatida rasman e'tirof etildi. Shu munosabat bilan A/RES/64/253-sonli BMT rezolyutsiyasi[11] qabul qilindi hamda mazkur rezolyutsiyada 21-mart "Xalqaro Navro'z kuni" deb e'lon qilindi.

Nomoddiy madaniy meros insonlarni bir-biriga yaqinlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, bugungi kunda yosh avlodlar o'rtasida nomoddiy madaniy merosning ahamiyati va uni muhofaza qilish zarurligi to'g'risida xabardorlikni oshirish har qachongidan ham zarur hisoblanadi. Nomoddiy madaniy meros jamiyatlar o'zlarining madaniy o'zligining bir qismi deb tan oladigan amaliyotlar, bilimlar va ifodalarni, shuningdek, tegishli obyektlar va joylarni o'z ichiga oladi. Avloddan avlodga o'tib keladigan bu meros o'zlikni mustahkamlashda hamda madaniy xilmaxillikka hurmatni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. YUNESKOning 2003-yildagi Konvensiyasi kelajak avlodlar uchun ushbu madaniy ifodalarni himoya qilish zarurligini ko'rsatib berdi.

Xulosa. Nomoddiy madaniy meros elementlarining YUNESKO ro'yxatlariga kiritilishi mamlakatimiz uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tomondan, O'zbekiston boy tarixiy merosining jahon hamjamiyati tomonidan yanada kengroq e'tirof etilishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, mazkur elementlarning xalqaro miqyosda muhofaza qilinishini ta'minlash uchun asos bo'ladi. Uchinchi tomondan, bu kelgusida mamlakatimiz turizm salohiyatining keng miqyosda rivojlanishiga ham katta yo'l ochadi. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda

madaniy yodgorliklar tarixini o'rganish, ularni saqlash va kelajak avlodga asl holatida yetkazish, mazkur sohaga oid qonunchilik tizimini mustahkamlash, fuqarolarda mazkur sohaga oid daxldorlik va majburiyat hissini oshirish, xalqaro hamkorlik ko'lamini kengaytirish bugungi kunning qilinayotgan va qilinishi kerak bo'lgan muhim vazifalaridandir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Международная конвенция об охране нематериального культурного наследия. – Париж, 17 октября 2003 г. MISC/2003/CLT/CH/14. – С. 15.
2. http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=1282807&twolang=true (13.07.2017).
3. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент: 2010 й, №40-41. 345-модда.
4. Lex.uz/uz/
5. Lex.uz/uz/
6. Lex.uz/uz/
7. Lex.uz/uz/
8. Convention for the Safeguarding of the Intangible cultural heritage. – Paris. 17 October 2003. Misc/2003/CLT/CH/14. P.2.
9. ЮНЕСКО ишлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий Комиссияси. 1994-2009. 4615900003UZB-сонли ЮНЕСКО Қатнашув дастури. Т., 2009. Б. 18.
10. ЮНЕСКО ишлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий Комиссияси. 1994-2009. 4615900003UZB-сонли ЮНЕСКО Қатнашув дастури. Т., 2009. Б. 19.
11. UN Resolution about International Day of Nowruz. A/RES/64/253. Resolution adopted by the General Assembly on 23 February 2010 [without reference to a Main Committee (A/64/L.30/Rev.2 and Add.1)] 64/253. P.3.

